XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-oktabr VII-9-103-11-160-K/25 Toshloq tumani

Toshloq tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2025-yil 1-fevraldagi 11-11-160-F/25-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan Farg‘ona viloyati Toshloq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shaharcha va qishloqlarining umumiy perimetri 459744,19 metr umumiy maydoni 24317,69 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Yakkatut shaharchasi umumiy perimetri 11822,96 metr, umumiy maydoni 211,94 gektar;

Turvat shaharchasi umumiy perimetri 9503,09 metr, umumiy maydoni 145,90 gektar;

Toshloq shaharchasi umumiy perimetri 12610,60 metr, umumiy maydoni 277,32 gektar;

Sadda shaharchasi umumiy perimetri 5888,07 metr, umumiy maydoni 110,67 gektar;

Qumariq shaharchasi umumiy perimetri 9622,90 metr, umumiy maydoni 154,72 gektar;

Quyi Nayman shaharchasi umumiy perimetri 8592,25 metr, umumiy maydoni 173,07 gektar;

Zarkent shaharchasi umumiy perimetri 8938,76 metr, umumiy maydoni 200,07 gektar;

Varzak shaharchasi umumiy perimetri 8127,51 metr, umumiy maydoni 279,92 gektar;

Axshak shaharchasi umumiy perimetri 10068,29 metr, umumiy maydoni 238,13 gektar;

Arabmozor shaharchasi umumiy perimetri 4519,13 metr, umumiy maydoni 60,65 gektar;

Sadda qishlog'i umumiy perimetri 37207,10 metr, umumiy maydoni 1531,94 gektar;

Naymanbo‘ston qishlog'i umumiy perimetri 33986,02 metr, umumiy maydoni 3245,40 gektar;

Nayman qishlog'i umumiy perimetri 37021,96 metr, umumiy maydoni 2041,97 gektar;

Qo‘rg‘oncha qishlog'i umumiy perimetri 13105,13 metr, umumiy maydoni 712,89 gektar;

Qumariq qishlog'i umumiy perimetri 34691,63 metr, umumiy maydoni 1805,21 gektar;

Quyi Yakkatut qishlog‘i umumiy perimetri 45295,43 metr, umumiy maydoni 3110,69 gektar;

Zarkent qishlog‘i umumiy perimetri 70718,03 metr, umumiy maydoni 4383,29 gektar;

Varzak qishlog‘i umumiy perimetri 22524,47 metr, umumiy maydoni 1654,34 gektar;

Axshak qishlog‘i umumiy perimetri 37789,23 metr, umumiy maydoni 1877,77 gektar;

Arabmozor qishlog‘i umumiy perimetri 37711,63 metr, umumiy maydoni 2101,81 gektar;

Toshloq tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi huquqshunosi M.Sotvoldiyevning hisobotini tinglab, atroflicha muhokama qilib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi huquqshunosi M.Sotvoldiyevning Toshloq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi hisoboti hamda Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan Toshloq tumanidagi shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini

ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan komissiyyaning 2025-yil 19-may kungi 01-21-71/6-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshloq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (A.Ziyatov)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning tasdig‘i Farg‘ona viloyati Xalq deputatlari Kengashidan so‘ralsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi

DJURABAYEV
ABDUKAXXOR
ABDUVAXIDOVICH

Xalq deputatlari Toshloq tumani
Kengashining
2025-yil 29-oktabrdagi
VII-9-103-11-160-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshloq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida

M A ’ L U M O T

T.r	Shaharcha va qishloq aholi punktlar nomlari	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
	Shaharchalar		
1	Arabmozor shaharchasi	4519,13	60,65
2	Axshak shaharchasi	10068,29	238,13
3	Nayman shaharchasi	8592,25	173,07
4	Qumariq shaharchasi	9622,90	154,72
5	Sadda shaharchasi	5888,07	110,67
6	Toshloq shaharchasi	12610,60	277,32
7	Turvat shaharchasi	9503,09	145,90
8	Vazrak shaharchasi	8127,51	279,92
9	Yakkatut shaharchasi	11822,96	211,94
10	Zarkent shaharchasi	8938,76	200,07
10	**Jami**	**89693,56**	**1852,38**
	Ma’muriy-hududiy tuzilishi		
1	Arabmozor qishlog‘i	37711,63	2101,81
2	Axshak qishlog‘i	37789,23	1877,77
3	Nayman qishlog‘i	37021,96	2041,97
4	Naymanboston qishlog‘i	33986,02	3245,40
5	Qorgoncha qishlog‘i	13105,13	712,89
6	Qumariq qishlog‘i	34691,63	1805,21
7	Quyi Yakkatut qishlog‘i	45295,43	3110,69
8	Sadda qishlog‘i	37207,10	1531,94
9	Varzak qishlog‘i	22524,47	1654,34
10	Zarkent qishlog`i	70718,03	4383,29
10	**Jami**	**370050,63**	**22465,32**
20	**Tuman bo‘yicha jami**	**459744,19**	**24317,69**

Xalq deputatlari Toshloq tumani
Kengashining
2025-yil 29-oktabrdagi
VII-9-103-11-160-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Farg`ona viloyati Toshloq tumanining
shahar, shaharchalar va qishloqlar chegara chizig`ining kartografik
CHIZMASI

